SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 23-sentabr | 313-9-130-Q/24 | Guliston shahar hokimligi

Viloyatning tuman va shaharlaridan Guliston shahar eski dehqon bozori hududiga kirib keluvchi hamda bozorga tutash ko‘chalar orqali harakatlanuvchi muntazam jamoat transporti vositalarining yo‘nalish chizmalariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Guliston shahar eski dehqon bozori hududining buzilishi hamda hududdagi ko‘chalarning yopilishini hamda Sirdaryo viloyati transport boshqarmasining 2024-yil 9-sentabrdagi 632-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan:

1. Guliston shahar eski dehqon bozori hududining buzilishini hamda Sirdaryo viloyati transport boshqarmasining 2024-yil 9-sentabrdagi 632-sonli xatini inobatga olib, bozor hududiga tutash bo‘lgan ko‘chalar (Bunyodkor, Shifokorlar, Al-Xorazmiy, A.Navoiy va Xondamir)da harakatlanuvchi jamoat transporti vositalarining harakatini vaqtincha cheklash, shahar ko‘chalarida harakat jadalligining keskin ortishini inobatga olib, yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash va tartibga solish, fuqarolarga qulayliklar yaratish hamda sodir etilishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarning oldini olish maqsadida, Guliston shahar hududiga:

– Sirdaryo, Sayxunobod, Mirzaobod, Oqoltin va Sardoba tumanlaridan kirib keluvchi muntazam jamoat transporti yo‘nalishlarida harakatlanayotgan M1 (yengil), M2 (mikroavtobus) va M3 (avtobus) toifali transport vositalari “Mustang Avto Diagnostik” MChJga qarashli avtostansiya hamda Guliston temir yo‘l vokzali hududida joylashgan avtoturargoh orqali harakatlarini amalga oshirishi;

– Boyovut, Guliston, Mirzaobod va boshqa tumanlar, Yangiyer va Shirin shaharlaridan kirib keluvchi jamoat transporti yo‘nalishlarida harakatlanayotgan barcha toifadagi transport vositalari Yangi bozor hududida joylashgan “Humo” markazi avtoturargohi hududi orqali harakatlarini amalga oshirishi;

– Shaharning ichki yo‘nalishlarida harakatlanayotgan jamoat transportlari o‘z harakatlarini Guliston temiryo‘l vokzali hududida joylashgan avtoturargoh va Yangi bozor hududida joylashgan “Humo” markazi avtoturargohi orqali amalga oshirishi

hamda shahar hududiga boshqa tuman va shaharlardan kirib keluvchi yo‘lovchilarning talab va ehtiyojidan kelib chiqib, zaruratga ko‘ra shahar yo‘nalishlarida qo‘shimcha avtotransport vositalari jalb qilinishi inobatga olinsin.

2. Guliston shahar IIB (B.Sayitnazarov) viloyat transport boshqarmasi (F.Siddikov) bilan hamkorlikda mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

3. Shahar hokimligi devonxonasi (A.Abdullayev), mazkur qarorni “Guliston yangiliklari”, “Гулистанские новости” gazetalarida nashr etilishini va shahar hokimligi matbuot xizmati (Sh.Yunusov) shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini, qog‘oz va elektron shakllarda bir kunlik muddatda, tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga yetkazilishini tashkillashtirsin.

4. Ushbu qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Kamilov zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi **J.Xodjimanov**